

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ 5/10 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

#### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

## **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li*

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI ..... 11-19

*Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna*

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI ..... 20-24

*Umarov Sardor Yakubovich*

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIVASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIVAVIY OQIBATLARI..... 25-31

*Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich*

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR ..... 32-37

*Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li*

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) ..... 38-41

*Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon*

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

*Ahmedov Bahodir Ismailovich*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI ..... 46-55

*Ravshanov Mahmud*

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

*Asadova Ra'no Baymanovna*

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI ..... 60-64

*Qurbonova Marg'uba*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) ..... 65-68

*Kamolova Habiba Muhammadiyevna*

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR ..... 69-74

*Ergashev Umar Kuziyevich*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) ..... 75-79

*Ergashev Akhror*

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE ..... 80-88

|                                                                                                                                                                                                                                       |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i><br>SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH:<br>YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR .....                                                                                               | 89-93   |
| <i>Esanova Nilufar</i><br>CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI:<br>XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL<br>(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....                                                  | 94-97   |
| <i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i><br>"MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?"<br>MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI<br>NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA) ..... | 98-105  |
| <i>Ismatova Zulfizar</i><br>O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI .....                                                                                                                                                     | 106-114 |
| <i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i><br>G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....                                                                                                                                           | 115-125 |
| <i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i><br>YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI ....                                                                                                                 | 126-129 |
| <i>Elboyeva Shaxnoza</i><br>ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA<br>O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI .....                                                                                                                        | 130-134 |
| <b>08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI</b>                                                                                                                                                                                                 |         |
| <i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i><br>O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI<br>O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                                                             | 135-142 |
| <i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i><br>MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA<br>SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR<br>(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....                                          | 143-151 |
| <i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i><br>IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY<br>MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE:<br>IN THE CASE OF JAPAN .....                                                             | 152-157 |
| <i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i><br>MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY<br>INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR .....                                                    | 158-162 |
| <i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i><br>DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT:<br>SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR .....                                                                                                           | 163-166 |
| <i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i><br>AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK<br>PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI .....                                                         | 167-174 |

|                                                                                                                                                          |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i><br>CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA<br>BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH..... | 175-179 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

|                                                                                                                                                            |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Raupova Ra'no Sohibovna</i><br>GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN<br>FOYDALANISH.....                                           | 180-184 |
| <i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i><br>JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK<br>VA PROGNOSTIK VAZIFALARI .....                          | 185-189 |
| <i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i><br>YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI .....                                                                  | 190-194 |
| <i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i><br>NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI<br>ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....              | 195-205 |
| <i>Tolipov Baxtiyor</i><br>YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI                                                         | 206-211 |
| <i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i><br>AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT<br>BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....           | 212-218 |
| <i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i><br>RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI .....                                                 | 219-225 |
| <i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i><br>RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV<br>RATSIONALLIK .....                                  | 226-232 |
| <i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i><br>EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI .....                                               | 233-238 |
| <i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i><br>МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ<br>В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ .....                         | 239-243 |
| <i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i><br>YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLII ICHIMLIK LARGA<br>QIZIQISHNING IJTIMOIIY SABAB VA OQIBATLARI ..... | 244-247 |
| <i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i><br>INSON FALSAFASI .....                                                              | 248-252 |
| <i>Baratova Madina Xasanovna</i><br>KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOIIY FAOLLIGINI TA'MINLASH:<br>INDIVIDUAL VA IJTIMOIIY OMILLAR .....               | 253-259 |
| <i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i><br>IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI:<br>ETIK TAMOIYLLAR VA IJTIMOIIY NOMUTANOSIBLIK LAR TAHLILI .....      | 260-269 |
| <i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i><br>COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS:<br>REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS .....          | 270-274 |



## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

|                                                                                                                                                                                                            |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i><br>THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV .....                                                                                                 | 275-280 |
| <i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i><br>СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ,<br>СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ<br>(НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА) ..... | 281-285 |
| <i>Sanaqulova Fayoz</i><br>REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR .....                                                                                                                  | 286-289 |
| <i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i><br>THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY .....                                                                                                          | 290-293 |
| <i>Norqobilova Nigora Uralovna</i><br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING<br>LINGVOMADANIY SHARTLANISHI .....                                                                       | 294-298 |
| <i>Ahmedova Fayyoz Rashidovna</i><br>O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY,<br>RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI .....                                                            | 299-306 |
| <i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i><br>SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK<br>AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR .....                                                                             | 307-310 |

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

|                                                                                                                                                                                                |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i><br>FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY<br>IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF<br>"SMART REGULATION" ..... | 311-317 |
| <i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i><br>JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING<br>FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR .....   | 318-328 |
| <i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i><br>JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY<br>REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH .....        | 329-339 |
| <i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i><br>VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR<br>PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI .....                          | 340-346 |
| <i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i><br>THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION .....                                                                        | 347-353 |
| <i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i><br>XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY<br>QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI .....                                     | 354-362 |

|                                                                                                                                        |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Каюмова Асая Султномуродовна</i><br>ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ:<br>ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....       | 363-368 |
| <i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i><br>KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...                     | 369-377 |
| <i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i><br>VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV .....                          | 378-392 |
| <i>Amonov Zavqiddin</i><br>ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI .....                                                            | 393-400 |
| <i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i><br>YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING<br>JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI ..... | 401-405 |
| <i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i><br>ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY .....                             | 406-411 |
| <i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i><br>СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ:<br>ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ .....  | 412-418 |

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                                                                                                                                                          |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Utkirov Nusrat</i><br>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI<br>RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI-<br>MODULLI YONDASHUVLAR .....                                                                                                         | 419-424 |
| <i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i><br>BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY<br>TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI<br>("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR.<br>VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA) ..... | 425-428 |
| <i>Rasulova Moxidil</i><br>TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR<br>BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI .....                                                                                                            | 429-438 |
| <i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i><br>ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL<br>ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY<br>TA'LIM BERISH .....                                                                                          | 439-445 |
| <i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i><br>BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI<br>RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI .....                                                                                                   | 446-449 |

**Received:** 20 October 2025  
**Accepted:** 15 November 2025  
**Published:** 30 November 2025

*Article / Original Paper*

## **COMMUNICATIVE REALITY AND COMMUNICATIVE RATIONALITY IN THE DIGITAL SOCIETY**

**Ekubova Mavluda Iskandarovna**

Associate Professor of the Department of Philosophy,  
National University of Uzbekistan,  
Candidate of Philosophical Sciences

**Abstract.** This article examines the essence of communicative reality and communicative rationality in the context of a digital society, their role in social life and cultural interaction, as well as how the new communicative environment, formed through information technologies and digital platforms, influences communication, mutual understanding, and public consciousness. Additionally, the ethical and cultural foundations of rational communication in the digital space are explored.

**Keywords:** digitalized society, communicative reality, communicative rationality, information technologies, digital culture, social communication.

---

## **RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK**

**Yekubova Mavluda Iskandarovna**

O'zbekiston Milliy universiteti  
Falsafa kafedrasi dotsenti,  
falsafa fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Maqolada raqamlashgan jamiyat sharoitida kommunikativ reallik va kommunikativ ratsionallikning mohiyati, ularning ijtimoiy hayot va madaniy muloqotdagi o'rni hamda axborot texnologiyalari va raqamli platformalar orqali shakllanayotgan yangi kommunikativ muhit insonlar o'rtasidagi muloqot, tushunish va ijtimoiy ongga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, raqamli makonda ratsional muloqotning axloqiy va madaniy asoslari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqamlashgan jamiyat, kommunikativ reallik, kommunikativ ratsionallik, axborot texnologiyalari, raqamli madaniyat, ijtimoiy muloqot.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N35>

**Kirish.** Zamonaviy falsafaning eng muhim masalalaridan biri insonning bilish faoliyatini muloqot jarayoni bilan uzviy bog'lab tahlil qilishdir. Inson mavjudligining tub mohiyati shundaki, u dunyoni faqat idrok etuvchi emas, balki uni muloqot orqali mazmunan qayta yaratadigan mavjudotdir. Shu ma'noda, kommunikativ reallik inson borlig'ining faol, ma'naviy va ijtimoiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha insonni alohida mavjudot emas, balki boshqa insonlar bilan aloqadorlikda mavjud bo'lgan, ya'ni "muloqotda yashovchi" mavjudot sifatida talqin etadi. Prujinin va T.Shchedrina muloqotga antropologik o'lchov berib: "Fan va falsafa inson o'lchovidan uzilib ketsa, ular nafaqat gumanitar, balki ratsional mazmunini ham yo'qotadi"[1] — deya e'tirof etishadi. Bu fikr kommunikativ reallikni "insoniy mavjudlik

o'ldiruvchi sifatida mustahkamlaydi. Inson mavjudligi reallikni idrok etish emas, balki uni til va ma'no orqali barpo etish jarayonidir. Ontologik jihatdan bu holat mavjudlikning dinamikligini, o'zaro anglashuvda qayta vujudga kelishini bildiradi. Shu bilan birga, bu yondashuvning zaif tomoni shundaki, borliq faqat insoniy tafakkur bilan cheklanadi, uning mustaqil ontologik qatlamlari e'tibordan chetda qoladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar:** Kommunikativ ratsionallik bilish jarayonining ijtimoiy mohiyatini ochadi. V.Vasjukov va E.Shulga ta'kidlaganidek, "postnoklassik tafakkurda haqiqat yakka subyektning tajribasida emas, balki subyektlararo muloqot jarayonida vujudga keladi, haqiqat bu anglashuvning o'zidir"[2]. Bu fikr gnoseologik yondashuvning markazida turadi, bilim endi yakka idrok mahsuli emas, balki birgalikdagi muloqot natijasidir. Habermas ta'riflaganidek, "ratsionallik bu o'zaro tushunishga qaratilgan muloqotning ichki mantiq'idir"[3,380]. Shu tariqa, bilish faoliyati – bu tushunish orqali haqiqatga erishish jarayonidir. Inson aqlining kuchi mantiqiy qat'iyatda emas, balki muloqotda o'zini anglash qobiliyatidadir. Bu fikrga tanqidiy yondashadigan bo'lsak, A.Yu.Antonovskiy, "Agar haqiqatni konsensusga tenglashtirsak, unda obyektivlik o'ldiruvchi yo'qoladi va ijtimoiy bilish o'z-o'zini oqlovchi ritorikaga aylanadi"- deb ta'kidlab,[4] kommunikativ ratsionallikning gnoseologik chegaralarini aniqlaydi. Kommunikativ ratsionallikda muloqotning o'zi emas, balki uning ichki mantiqiy va etik mezonlari muhimdir. Haqiqat konsensusning natijasi emas, balki unga olib boruvchi yo'ldir.

Kommunikativ reallik va kommunikativ ratsionallikning ontologik, gnoseologik, ijtimoiy, madaniy, estetik jihatlariga qaratilgan tadqiqotlar M.N.Normamatova, Sh.T.Kubayeva, Sh., H.E.Abdunosirova, A.R.Pozilov, A.Xaydarov, A.Muminov, M.Sh.Usmanov, B.Xusanov va boshqa olimlar tadqiqotlarida tadqiq etilgan.

**Natija va muhokama.** Kommunikativ reallik va kommunikativ ratsionallik inson tafakkurining bir-birini to'ldiruvchi ikki qirrasini bo'lib, ular insonning mavjudlikdagi o'rni va ongiy faoliyatining birligini ifodalaydi. Ontologik jihatdan, bu reallik muloqotda jonlanadigan mavjudlikdir, gnoseologik jihatdan, bu bilishning ijtimoiy va anglashuvga asoslangan shaklidir, mantiqiy jihatdan esa, bu inson tafakkurining muloqot orqali tartib va ma'no hosil qilish qobiliyatidir. J.Habermasning so'zlari bilan aytganda, "ratsionallik bu insonlar o'rtasidagi tushunish qobiliyatini asraydigan normativ asosdir" [3,380]. Shunday ekan, kommunikativ reallik insoniyat borlig'ining eng chuqur mohiyatini, kommunikativ ratsionallik esa uning ma'naviy, etik va mantiqiy tamal toshini tashkil etadi.

Raqamlashgan jamiyat inson mavjudligining yangi bosqichi sifatida, uning borliqni anglash, fikrlash va muloqot qilish shakllarini tubdan o'zgartirdi. Ushbu jamiyatda "kommunikativ reallik" nafaqat ijtimoiy aloqalar tizimi, balki mavjudlikning ontologik shakliga aylanadi. Heideggerning "texnika mohiyati texnikada emas, balki ochilish tarzidadir" degan fikri raqamli borliqning falsafiy asosini ifodalaydi. Texnologiya orqali inson dunyoni faqat vosita sifatida emas, balki "borliqning o'zini ochish holati" sifatida idrok etadi. Ammo raqamli kommunikatsiyada bu ochilish endilikda inson tajribasining o'zini ham algoritmik kodlarga bo'ysundiradi. Tanqidiy yondashganda, Heidegger texnika orqali mavjudlikning mohiyatini ochishni ijobiy jarayon sifatida ko'rsatgan bo'lsa-da, raqamlashgan jamiyatda texnika endi mavjudlikni ochmaydi, balki uni modelga aylantiradi, shu tariqa ontologik erkinlikni kodli determinizm bilan almashtiradi.

Habermasning “kommunikativ ratsionallik” nazariyasiga ko‘ra, “ratsionallikning mohiyati subyektning maqsadga yo‘naltirilgan harakatida emas, balki muloqot jarayonining o‘zida, o‘zaro tushunish imkoniyatida mujassamdir”[3,285]. Ammo raqamli jamiyatda bu muloqotning tabiati o‘zgaradi, kommunikatsiya insonlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishdan emas, balki algoritmlar va sun‘iy intellekt vositalari orqali vositalashgan axborot almashinuvidan tashkil topadi. Demak, “kommunikativ ratsionallik” asta-sekin “algoritmik ratsionallik” bilan almashinadi. Habermas ratsionallikni axloqiy-ijtimoiy kelishuvga asoslangan deb ko‘rgan bo‘lsa, raqamli davrda ratsionallik texnologik optimallikka, samaradorlik va tezlik mezonlariga ko‘ra belgilanadi. Shu bois, Habermas modeli raqamli kontekstda normativ kuchini qisman yo‘qotadi, chunki endi ratsionallik insonlararo tushunish emas, axborot oqimining strukturaviy uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi.

N.Luhmannning tizimlar nazariyasiga ko‘ra, “kommunikatsiya — bu ijtimoiy tizimlarning o‘zini qayta ishlab chiqarish shaklidir”[5,67]. Bu qarash raqamli jamiyatning gnoseologik tuzilishini anglashda muhim. Raqamli kommunikatsiya bilimning tarmoq shaklini hosil qiladi, unda har bir axborot birligi o‘zining o‘tmishdagi va kelajakdagi bog‘lanishlari bilan uzviy tizim hosil qiladi. Bu - “avtoreferensial bilish modeli”, unda bilim subyektiv idrok emas, balki tarmoqdagi o‘zaro bog‘liqliklar orqali shakllanadi. Luhmann modelining afzalligi shundaki, u raqamli kommunikatsiyani o‘zini o‘zi tashkil etuvchi bilim tizimi sifatida talqin qiladi, ammo bu modelda inson subyeksi faqat tizim elementi sifatida ko‘riladi. Raqamli gnoseologiyada esa inson bilim subyeksi bo‘lishdan tashqari, bilimni ishlab chiqaruvchi algoritmik agentlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Paul Ricoeurning germeneytik falsafasi mantiq kontekstida muhim izoh beradi. U, “tilning mantiqiy strukturasi insonning ma‘no berish axloqiyliigi mujassam”[6,52] — deb yozadi. Bu fikr raqamli muloqotda semantika va axloqning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Raqamli kommunikatsiyada esa til kodga, ma‘no esa algoritmik ifodaga aylanadi. Shunday qilib, kommunikativ ratsionallikning mantiqiy shakli formal-matematik ratsionallikka singib ketadi. Bu jarayon muloqotning semantik boyligini kamaytiradi, biroq tilda yangi formal aniqlikni keltirib chiqaradi. Tanqidiy yondashuvda aytish mumkinki, raqamli mantiq axloqiy muloqotdan uzoqlashsa-da, u aniqlik, izchillik va optimallik tamoyillarini kuchaytiradi.

Raqamlashgan jamiyatdagi kommunikativ reallik shunday qilib ontologik jihatdan mavjudlikning texnik-virtual shakliga, gnoseologik jihatdan bilimning tarmoqlashgan, o‘zini o‘zi referensial modeliga, mantiqiy jihatdan esa algoritmik ratsionallik tizimiga aylanadi. Bu transformatsiya insoniy muloqotni yo‘q qilmaydi, balki uni yangi ekzistensial shaklda davom ettiradi - bunda inson borligi “so‘z” orqali emas, “kod” orqali o‘zini ifoda etadi. Raqamli kommunikatsiyaning ontologik mohiyati shundaki, u mavjudlikni mediatsiyalangan, ko‘paytirilgan va qayta ishlab chiqilgan shaklda qayta yaratadi, gnoseologik mohiyati - bilimni tarmoqdagi uzluksiz harakat sifatida tushuntiradi, mantiqiy mohiyati esa - inson tafakkurining formallashtirilgan, lekin o‘z-o‘zini takrorlaydigan ratsionallik sifatida namoyon bo‘lishidir.

Raqamli sivilizatsiya insoniyat tarixida yangi ontologik bosqich sifatida insonning mavjudlik bilan aloqalarini, bilish jarayonining gnoseologik mexanizmlarini hamda mantiqiy tafakkurning shakl va mohiyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Bunda “kommunikativ reallik” — inson va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning yangi ontologik maydoni sifatida, “kommunikativ ratsionallik” esa shu reallikni anglash, tahlil qilish va boshqarishning mantiqiy-epistemik shakli sifatida yuzaga chiqmoqda. Olima M.Normamatova o‘z tadqiqotida

“axborotlashgan jamiyatda virtual obrazlar va virtual reallik inson tafakkurini yangi bilish shakllariga yo‘naltiradi, natijada reallik tushunchasi o‘zining klassik ontologik holatidan chiqib, potensialdan aktual shaklga o‘tadi”[7] deb yozadi. Ushbu fikrda virtualistik jarayon faqat texnik-madaniy hodisa emas, balki ontologik mutatsiya sifatida talqin etiladi. Virtual reallik endi “borliqning soyasi” emas, aksincha, borliqning o‘z-o‘zini bilish shakliga aylanmoqda. Shunday ekan, raqamli kommunikatsiya tizimi orqali insonning mavjudligi endi nafaqat tabiiy, balki algoritmik voqelik orqali shakllanadi. Biroq bu ontologik o‘zgarish gnoseologik masalani - bilishning manba va ishonchliligini yangicha darajaga olib chiqadi. Sh.T Kubayeva “ilmiy tafakkur va o‘yin o‘rtasidagi aloqadorlik insonning kognitiv faoliyatini yangi darajaga olib chiqadi, chunki ilmiy bilishning o‘zi o‘yinli mexanizmga aylanadi”[8] deya ta’kidlaydi. Bu fikrni ijodiy tahlil qilganda, raqamli kommunikativ reallik shunchaki ma’lumotlar almashinuvi emas, balki “bilim o‘yini” - subyekt va obyekt o‘rtasidagi dinamik harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo bu yondashuvda tanqidiy nuqta shundaki, o‘yin va tafakkur uyg‘unligi gnoseologik aniqlikni emas, balki ma’no ko‘plikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun kommunikativ ratsionallikni tushinishda “o‘yinli bilish”ni faqat ijodiy emas, balki mantiqiy-normativ darajada ham o‘rganish zarur.

Sun’iy intellekt va biotexnologiya integratsiyasi muammosiga to‘xtalgan Sh.Muhammadjonov “sun’iy intellekt va biotexnologiya tabiiy va sun’iy tizimlar orasidagi chegaralarni noaniq holatga keltirib, mavjudlikning yangi shakllarini yaratmoqda”[9] deydi. Uning fikricha, inson tafakkurining raqamli shakllanishi - bu gnoseologik emas, ontologik voqelikdir. Shunga ko‘ra, raqamli kommunikativ reallik - insonning o‘z mavjudligini texnologik muhit orqali qayta yaratish harakatidir. Biroq bu yondashuvni tanqidiy ko‘z bilan baholaganda, sun’iy intellektni “mavjudlikning yangi shakli” deb e’tirof etish insonning irodaviy va ma’naviy subyektivligini texnik determinizmga topshirish xavfini tug‘diradi. Shu bois kommunikativ ratsionallikni insoniy ongini yo‘qotmasdan, balki uni texnologik strukturalar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Bilish jarayonining gnoseologik jihatlarini tahlil etgan H.Abdunosirova esa “ilmiy bilishda mantiq va intuitsiya o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular bilish jarayonining ratsionallikdan tashqaridagi affektiv va ongsizlik mexanizmlarini ham o‘z ichiga oladi”[10] deb yozadi. Bu nuqtai nazardan, kommunikativ ratsionallikni faqat mantiqiy tizim sifatida emas, balki intuitiv-madaniy kod sifatida ham talqin etish mumkin. Chunki raqamli kommunikatsiya sharoitida “bilish” endi faqat isbot va tahlil emas, balki sezgi, tajriba va tezkor refleksiya asosida sodir bo‘ladi. Shu bois mantiqiy ratsionallik “intuitiv ratsionallik” bilan uyg‘unlashadi - bu esa klassik mantiqning formal tuzilmasini zamonaviy kognitiv dinamikaga aylantiradi.

Ontologik darajada raqamli kommunikativ reallik “mavjudlikning aks ettirilgan shakli” emas, balki o‘z-o‘zini yaratadigan refleksiv tizimdir. Bu fikrni chuqurlashtirgan A.Pozilov “ilm — bir narsaning haqiqatini bilish, idrok qilishdir, ammo bilim endi shaxsning ichki ma’naviyati emas, balki madaniyatning moddiy voqelikdagi izi sifatida o‘zini namoyon qiladi”[11] deb yozadi. Bu qarashda ilmning kommunikativ mohiyati ochiladi: raqamli jamiyatda bilimni yaratish — bu haqiqatni topish emas, balki uni ishlab chiqarish, takror yaratish va almashishdir. Shu bois, kommunikativ ratsionallik - “bilim ishlab chiqarish”ning mantiqiy tamoyiliga aylanadi. Biroq tanqidiy jihatdan bu jarayon bilishning ontologik chuqurligini emas, uning operatsion tezligini ustuvorlashtiradi. Mantiqiy kontekstdan qaraganda, kommunikativ ratsionallik Aristotelcha mantiqning statik shakllarini yengib, sinergetik logikaga aylanadi. U

endi “haqiqatga olib boruvchi qat’iy silsilalar” emas, balki o’zgaruvchan, adaptiv, tarmoqlashgan argumentatsiyalar tizimidir.

Raqamli kommunikatsiya mantiqni diskursiv tahlildan algoritmik modellashga o’tkazadi. Shu jihatdan, kommunikativ ratsionallik — ontologik o’zgarishning mantiqiy aksi, gnoseologik jarayonning struktural mantiqidir. Shunday qilib, raqamlashgan jamiyatda kommunikativ reallik — bu “borliqning kommunikativ shakli”, kommunikativ ratsionallik esa “bilishning o’zini bilish” tamoyilidir. Ularning birlashuvida ontologiya (borliqning raqamli modifikatsiyasi), gnoseologiya (bilishning tarmoq shakli) va logika (fikrning o’zgaruvchan dinamikasi) yangi sintezga erishadi. Bunda inson faqat axborot iste’molchisi emas, balki mavjudlikni aks ettiruvchi refleksiv subyekt sifatida namoyon bo’ladi.

Zamonaviy falsafiy tafakkurda kommunikativ reallik va kommunikativ ratsionallik tushunchalari inson mavjudligining ijtimoiy, gnoseologik va aksiologik mohiyatini ochib beruvchi markaziy kategoriyalardan biri sifatida shakllanmoqda. Ular inson tafakkurining faqat bilish faoliyati emas, balki ijtimoiy muloqot, madaniy almashinuv va ma’naviy o’zaro ta’sir jarayonida shakllanishini ko’rsatadi. O’zbekiston falsafiy maktabining so’nggi yillardagi ilmiy izlanishlarida mazkur masalalar jamiyatning ma’naviy, huquqiy va kommunikativ asoslarini tahlil qilishda alohida e’tibor markaziga chiqmoqda. A.Xaydarov “Zamonaviy sivilizatsiya, madaniyatlar plyuralizmi va milliy mentalitetlar transformatsiyasi” nomli maqolasida kommunikativ reallikni madaniyatlararo tafakkurning asosiy unsuri sifatida talqin etadi. Unga ko’ra, “madaniy plyuralizm - ijtimoiy munosabatlar tizimini barqaror qiladigan muloqot formasi bo’lib, zamonaviy sivilizatsiyada insonning ma’naviy bilish qobiliyati global axborot muhiti ta’sirida muloqot va ma’no orqali shakllanadi”[12]. Muallif fikrida muloqot inson tafakkurining ontologik asosi sifatida namoyon bo’ladi, mavjudlik tilda, ma’noda va axborotda o’zini ifoda etadi. Bu fikrda Habermasning “kommunikativ harakat” nazariyasi bilan yaqinlik kuzatiladi, ammo Xaydarovning yondashuvida madaniy va milliy muloqot shakllari global tafakkur bilan uyg’unlashadi. Tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, muallifning yondashuvi ratsionallikning gnoseologik qatlamidan ko’ra, ko’proq aksiologik (qadriyatli) kontekstda ifodalanadi, ya’ni insonning madaniy tajribasi markazga qo’yiladi.

A.Muminov “O’zbekiston barqaror rivojlanish yo’lida” nomli tadqiqotida kommunikativ ratsionallikning ijtimoiy va ma’naviy mohiyatini chuqur tahlil qiladi. U yozadi: “Inson turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy faoliyat faqat ma’naviy va intellektual muloqot orqali samara beradi”[13,15]. Unga ko’ra, kommunikativ ratsionallik jamiyatni barqaror rivojlantiruvchi asosiy omil bo’lib, “fuqarolarning muloqot madaniyati, ya’ni bir-birini eshitish va tushunish qobiliyati” ijtimoiy islohotlarning poydevorini tashkil etadi[13,18]. Bu yondashuv kommunikativ ratsionallikni faqat bilish faoliyati sifatida emas, balki ma’naviy integratsiyaning shakli sifatida ochadi. Ammo tanqidiy jihatdan aytganda, Muminovning konsepsiyasi ratsionallikning mantiqiy va epistemologik tomonlarini kamroq yoritadi, chunki u asosan ma’naviy qadriyatlar bilan bog’langan sotsial tafakkurga urg’u beradi. K.Saydozimov “Baholash va normalar mantig’ida huquqiy qadriyatlar” nomli maqolasida ratsionallikni mantiqiy-normativ tizim sifatida tushuntiradi: “Huquqiy qadriyatlarning mantiqiy tuzilishi baho va norma o’rtasidagi kommunikativ uyg’unlikda shakllanadi, chunki baho haqiqatga, norma esa amalga yo’naltirilgan”[14]. Muallifning fikricha, inson tafakkuri muloqotda normativ mantiqqa asoslanadi, bu esa ratsionallikning deontik mazmunini ko’rsatadi. Uning fikri ijtimoiy muloqotda axloq, huquq va aqlning birligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, bu yondashuv

ratsionallikning ijodiy, intuitiv va semantik jihatlarini yetarlicha hisobga olmaydi, kommunikativ tafakkur esa har doim qat'iy normativlikdan tashqariga chiqadigan ijodiy ma'no jarayonidir.

M.Sh.Usmanov “Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarini ta'minlash” nomli tadqiqotida kommunikativ ratsionallikni siyosiy-falsafiy va huquqiy darajada tahlil qiladi. Muallifning fikricha, “fuqarolik jamiyatining faolligi, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, inson huquqlarini amalga oshirish jarayonida muloqot madaniyatining mavjudligi”[15] jamiyatdagi adolat va ratsionallikning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. “Hech kim unutilmaslik va ortda qolmaslik tamoyili” esa muallif nazarida kommunikativ adolatning ratsional mezonidir[3]. Bu fikr Habermasning “kommunikativ etikasi”ni milliy falsafiy tafakkur bilan uyg'unlashtiradi, inson huquqlari va ratsionallik muloqot orqali jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi. Ammo tanqidiy nuqtai nazardan, bu yondashuv ratsionallikni ijtimoiy-siyosiy doirada chegaralaydi va uning epistemologik mohiyatini to'liq ochmaydi. B.Xusanov “Inson — estetik tarbiyaning asosiy omili” nomli tadqiqotida kommunikativ ratsionallikni estetik-falsafiy nuqtai nazardan yoritadi. U shunday deydi: “Estetik tarbiya insonni inson qiladigan hodisadir... U tufayli odamlar o'zaro munosabatlarning insoniy va go'zal bo'lishiga erishadilar, nafasat o'zini namoyon qiladigan san'at va ma'naviy sohalaridan zavqlana bilandir”[16]. Bu fikrda ratsionallik insonning faqat bilish qobiliyati emas, balki go'zallikni idrok etish, yaratish va baholash imkoniyatidir. B.Xusanov ratsionallikni ruhiy, ma'naviy va estetik tajribaning sintezi sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, uning yondashuvi muloqotning ijtimoiy-ontologik jihatlarini yetarlicha ochmaydi, chunki u ratsionallikni asosan ruhiy-estetik muhit bilan bog'laydi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ reallik va kommunikativ ratsionallik O'zbekiston zamonaviy falsafasida insonni muloqot orqali borliqni biluvchi, uni ma'noda qayta yaratuvchi mavjudot sifatida talqin etadi. Shu bois, kommunikativ reallik ontologik jihatdan mavjudlikning muloqot orqali ifodasi, gnoseologik jihatdan bilishning intersub'yektiv mohiyati, mantiqiy jihatdan esa baho, norma va haqiqat uyg'unligining ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashgan jamiyatda kommunikativ reallik ontologik jihatdan inson mavjudligining texnologik ko'rinishi, gnoseologik jihatdan esa bilishning algoritmik va tarmoqlangan shakliga aylanmoqda. Kommunikativ ratsionallik esa bu reallikni asoslovchi yangi bilish paradigmasidir - u mantiq, intuitsiya, axloq va ijtimoiy ongning uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Biroq, bu jarayonning xavfi shundaki, inson ratsionalligi texnologik ratsionallikka so'rilib ketayotgan paytda, kommunikativ jarayonlar insonparvarlikdan uzoqlashmoqda. Shu sababli zamonaviy falsafaning vazifasi - kommunikativ ratsionallikni insoniy ongning markaziga qaytarish, uni faqat texnik emas, balki ma'naviy, axloqiy va intuitiv qatlamlarda tiklashdir.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Пружинин Б.И., Щедрина Т.Г. Человеко размерность в современной науке // Проблемы философии познания. – 2025. №1. Стр. 33–43.
2. Васюков В.Л., Шульга Е.Н. Герменевтические аспекты постнеклассической науки // Проблемы философии познания. – 2025. №1. Стр. 44–54.
3. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Cambridge: Polity Press, 1984.
4. Антоновский А.Ю. Можем ли мы понять науку, или Как нам защитить социальную эпистемологию? // Проблемы философии познания. – 2025. №1. стр. 55–66.
5. Luhmann, N. Soziale Systeme. Grundriß einer allgemeinen Theorie. -Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1984. P. 67.



6. Ricoeur, P. Temps et récit. T. 1. - Paris: Seuil, 1983.
7. Normamatova, M. Virtualistika - yangi fan paradigmasi sifatida. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, Vol. 1, Issue 5, 2021. B. 174–180.
8. Kubayeva, Sh. T. Ilmiy tafakkur va o'yin aloqadorligining konseptual tahlili. Falsafa va huquq, 2025. №1. B. 76–79.
9. Muhammadjonov, Sh. Sun'iy intellekt va biotexnologik taraqqiyotning ontologik va gnoseologik asoslari: integratsiyaviy tahlil. //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, Vol. 2, Issue 4, 2025. B. 92.
10. Abdunosirova, H. E. Ilmiy bilish jarayonida mantiq va intuitsiyaning o'zaro bog'liqligi. Oriental Renaissance Journal, Vol. 5, Issue 4, 2025. – B. 81–87.
11. Pozilov, A. Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya mutanosibligini ta'minlash istiqbollari. Academic Research in Educational Sciences, Vol. 4, Issue 11, 2023. – B. 46–50.
12. Xaydarov A. Zamonaviy sivilizatsiya, madaniyatlar plyuralizmi va milliy mentalitetlar transformatsiyasi // Falsafa va huquq. – 2023. – № 2. – B. 9–10.
13. Muminov A.G. O'zbekiston barqaror rivojlanish yo'lida // Falsafa va huquq. – 2023. – № 2.
14. Saydozimov K. T. Baholash va normalar mantig'ida huquqiy qadriyatlar // Falsafa va huquq. – 2023. – № 2. – B. 194.
15. Usmanov M. Sh. Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarini ta'minlash // Falsafa va huquq. – 2023. – № 3. – B. 5.
16. Xusanov B. E. Inson - estetik tarbiyaning asosiy omili // Falsafa va huquq. – 2023. № 3. B. 24–25.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).